

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**KAMBAROVA SAODAT IRKINOVNA**

**ADABIYOTNI O'QUV FANI VA SAN'AT TURI SIFATIDA O'QITISH  
METODOLOGIYASI**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek adabiyoti)**

**pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Contents of the abstract of doctoral (DSc) dissertation**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Kambarova Saodat Irkinovna**

Adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitish metodologiyasi.....5

**Kambarova Saodat Irkinovna**

Methodology of teaching literature as an academic subject and an art form.....33

**Камбарова Саодат Иркиновна**

Методология преподавания литературы как учебного предмета и вида  
искусства .....63

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of published works

Список опубликованных работ.....68

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**KAMBAROVA SAODAT IRKINOVNA**

**ADABIYOTNI O'QUV FANI VA SAN'AT TURI SIFATIDA O'QITISH  
METODOLOGIYASI**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek adabiyoti)**

**pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.DSc/Ped444 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) va "ZiyoNet" Axborot ta'lif portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Matchanov Sapa**

pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Husanboyeva Qunduzxon Parpaliyevna**

pedagogika fanlari doktori, professor

**Yusupov Qo'nisboy Abilovich**

pedagogika fanlari doktori, professor

**Qahramonov Qurdosh Yalg'ashevich**

filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Qo'qon davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil “27” 04 soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (281 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “6” 04 kuni tarqatildi.  
(2024-yil “6” 04 dagi 1-raqamli reestr bayonnomasi).

**Q.B.Yo'idoshev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi,  
ped.f.d., professor

**Q.U.Pardayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
asosidagi bir martalik ilmiy kengash kotibi,  
filol.f.d., dotsent

**S.Ashirboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
asosidagi bir martalik ilmiy seminar raisi,  
filol.f.d., professor

## **KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta’lim tizimida o‘quvchilarining san’at turlari mazmun-mohiyatini idrok etish, obrazli va mantiqiy tafakkurini shakllantirish, mutolaa jarayonida yozuvchi yaratgan ijodiy yo‘lni qayta bosib o‘tish, muallif-kitobxon muloqotiga asoslanish, real hayotda muhim hisoblangan shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari muhim o‘rin tutadi. Bu borada AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Koreya, Turkiya kabi davlatlar ta’lim tizimi tajribasidan unumli foydalangan holda badiiy asar poetikasi, matnning estetik mohiyatini tushunishga qaratilgan “ijodkor – asar – kitobxon” uchligi doirasida ish ko‘rish adabiyotning o‘quv fani va so‘z san’ati sifatidagi o‘ziga xosligini talqin qilishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda adabiy ta’lim oldidagi badiiy-estetik tafakkur va tuyg‘ular tarbiyasi bilan bog‘liq vazifalarni ijro etish, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, etika, estetika, falsafa, mantiq, pedagogika didaktika va psixologiya fanlari qonuniyatlarini bevosita badiiy o‘zlashtirish jarayoniga o‘tkazish, obrazli tafakkur va intellektual salohiyatni rivojlantirishga doir tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ayniqsa, asarda tasvirlangan voqelik ichiga kirish yo‘li har doim matnni chuqur tadqiq etishga bog‘liqligi sababli bosh maqsad ilmiy haqiqatni izlash emas, balki badiiy-estetik tafakkurni shakllantirish, uzluksiz adabiy ta’lim jarayonida badiiy matn, badiiy obraz, obrazlilik, muallif nuqtayi nazari, kitobxon munosabati, badiiy konstruksiyalash tushunchalarini farqlashga doir tendensiyalar yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Mamlakatimizda o‘quvchilarни kognitiv va badiiy faoliyatga jalb etish, o‘qitishda hissiy psixologik muhit yaratish, subyekt-subyekt munosabatlarida ijodiy hamkorlikka tayanish, individual va tabaqalashtirilgan yondashuvlar asosida ta’lim berishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, adabiy ta’limga doir o‘quv tadqiqotlarini loyihalashtirish, turli muloqot vaziyatlarida o‘quvchilar faoliyatini maqsadli yo‘naltirish bilan bog‘liq sa’y-harakatlarni taqozo etadi. “Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash”<sup>1</sup> vazifasi adabiy ta’lim zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi hamda raqobatbardoshlik muhitida nazariy tushunchalar mazmunini yetarli darajada o‘zlashtirish, o‘zini o‘zi rivojlantirish, turli manbalardan axborotlar ola bilish qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxs intellektini yuksaltirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish va targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyaları rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.** Ta’limda adabiyotni til o‘qitish bilan integratsiyalash, badiiy asarni tarixiy, geografik, madaniy, lingvistik va texnologik aspektlarda o‘rganish, matn ustida ishslashda muallif va kitobxon muloqotiga asoslanish, talqin va intertekstual tahlil imkoniyatlari bo‘yicha jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliv ta’lim muassasalari, jumladan, Arizona, Harvard, Michigan (AQSH), Cambridge, Oxford, Edinburgh (Buyuk Britaniya, Shotlandiya), University of Strasbourg (Fransiya), Seul National University (Koreya), Ankara Universitesi, Gazi Universitesi, Hacettepe Universitesi, Ondokuz Mayis Universitesi (OMU) (Turkiya), Moskovskiy gosudarstvenniy pedagogicheskiy institut (Rossiya), M.Әuezov atyndaғı Оңтүстік Қазақстан universiteti, L.N.Gumilyov atyndaғы Еуразия ұлттық universiteti (Qozog‘iston), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (O‘zbekiston)da ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Dunyo ta’lim tizimida adabiyotni san’atning boshqa turlari bilan integratsiyalab o‘qitish, badiiy matnlar vositasida til o‘rganish, ekstensiv o‘qishga motivatsiya berish yo‘llari, adabiy matnda aks etgan etnomadaniyat va tarixiy an’analarni aniqlashga oid optimal yondashuvlar belgilangan (AQSH); adabiy qahramonlar tabiatı, fe’l-atvorini psixologik tavsiflash, kitobxonning personajlar bilan yonma-yon harakatlanishini tasavvur qilishlariga doir strategiyalar aniqlangan (Buyuk Britaniya); adabiy matnlar vositasida turli tilda so‘zlashuvchi xalqlarning o‘ziga xos hayot va tafakkur tarzi, madaniyatining noma’lum qirralarini ochishga ta’sir qiluvchu omillar o‘rganilgan (Germaniya); badiiy matnlarga kreativ yondashuvlar asosida voqelikning ijtimoiy-tarixiy va madaniy kontekstlarini aniqlash, so‘zlarni turli rakurslarda qo‘llash, “aqli mashqlar”, kitobxon va adabiy qahramon o‘rtasida xayoliy suhabatlar qurishga doir metodika ishlab chiqilgan (Fransiya); badiiy asarning yuzaki ma’nosidan tashqariga chiqish, asl mohiyatiga kirishga yordam berish, mavzuning til o‘rganish jarayonida

<sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi quydagi manbalar asosida yoritilgan: <https://www.dissercat.com/skachat-besplatnye-dissertatsii-i-avtoreferaty-iz-rgb>; Arioğul, S. (2001). The Teaching of Reading Through Short Stories in Advanced Classes. Unpublished M.A Thesis. – Ankara: Hacettepe University; Brumfit, C.J., & Carter, R.A. (1986). Literature and language teaching. – Oxford: Oxford University Press; Carter, R. & Long, M. (1991). Teaching Literature. – Harlow: Longman; Hill, J. (1989). Using Literature in Language Teaching London. – London: Macmillan; Lazar, G. (1993). Literature and Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press; Parkinson, B. & Thomas, H.R. (2000). Teaching Literature in a Second Language. – Edinburgh: Edinburg University Press; Obediat, M. (1997). “Language Vs Literaure In Departments In the Arab World” in English Teaching Forum. Ögeyik, Muhlis C. (2007). Attitudes of the Students in English Language Teaching Programs towards Literature Teaching. Eurasian Journal of Educational Research, 27. – P. 151–162. Ujjwala, K. (2013). English Language Teaching Through Literature. Journal of Golden Research Thoughts, Vol. 2 (11).

muhim element hisoblanishi tahlil qilingan (Turkiya), adabiyot o‘qitish orqali o‘quvchilar ma’naviyati va axloqiy-estetik tafakkurini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilgan (O‘zbekiston).

Jahonda adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida integratsiyalab o‘qitishga doir quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: san’at bilan muloqot, zamonaviy ijodkor-kitobxon imijini yaratish, badiiy matn tahlili asosida lateral-konstruktiv ko‘nikmalarni shakllantirish, badiiy materiallarni tabiiy materiallar bilan uyg‘un holda o‘rganish, adabiy-nazariy tushunchalarni so‘zlar, rasmlar, matematik ifodalar, simvollar orqali ko‘pma’noli yetkaza bilish malakasini rivojlantirish, asar sujeti va kompozitsiyasini qulay tuzilmalar, konseptual xarita va sxemalar asosida o‘zlashtirish.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘quvchilarda badiiy adabiyot vositasida ma’naviy-madaniy qadriyatlarni kashf qilish, estetik didni yuksaltirish, matnni chuqur idrok etishga ko‘maklashish maqsadi ustuvor bo‘lgan ta’lim paradigmasida zamonaviy adabiy ta’lim konsepsiyasini amalga oshirish bilan bog‘liq dolzarb muammolar alohida o‘rin tutadi. Bunda fanning o‘tmishdagi va bugungi istiqlol davri metodikasi tajribalari hisobga olinadi. Adabiyot metodikasi tarixida uni o‘quv fani sifatida o‘qitishga dastlabki ilmiy urinishlar S.Dolimov, H.Ubaydullayev, Q.Ahmedov, N.Mallayev, A.Zunnunov, S.Ismatov, T.Boboyevlarning tadqiqot ishlarida o‘z ifodasini topgan. Keyinchalik M.Mirqosimova, Q.Yo‘ldoshev, S.Matchonov, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, U.Dolimov, O.Madayev, V.Qodirov, Y.Abdugalitov, Q.Yusupov, N.Yuldasheva, R.Keldiyorov, M.Tursunova kabi metodist olimlar tajribalarida badiiy asar tahliliga tizimli yondashuv, yangilangan pedagogik tafakkur, mustaqil ishlarni tashkil etish, mustaqil fikrlash va bu jarayonda muammoli ta’limning o‘rni, madrasalar va jadidchilik ta’limoti, mumtoz namunalarni o‘qitish, xalq og‘zaki ijodini qiyosiy o‘rganish, o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, adabiyot darslarini samarali tashkil etish kabi muammolar doirasida tadqiq qilingan<sup>3</sup>.

<sup>3</sup> Долимов С., Убайдуллаев Х., Ахмедов К. Адабиёт ўқитиши методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – 448 б.; Ахмедов К. Ҳамза Ҳакимзоданинг “Бой ила хизматчи” драмасини ўрганиш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968.; Маллаев Н.М., Исматов С.И. Ўзбек адабиёти тарихи. Ўрта мактабнинг 9-синфи учун дарслар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965.; Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.; Зуннунов А., Ҳотамов Н. Адабиёт назариясидан кўлланма. Ўрта мактабларнинг юқори синфлари учун. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.; Мирқосимова М.М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 253 б.; Йўлдошев Қ.Б. Янгиланган педагогик тафakkur ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишининг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 306 б.; Матчонов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан mustaqil ishlarni tashkil этиш. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1998. – 300 б.; Ҳусанбоева Қ.П. Адабий таълим жараённида ўқувчиларни mustaqil fikrlashga ўргатишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 262 б.; Ниёзметова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишининг назарий ва методик асослари (рус гурухлари мисолида). Пед. док. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 242 б.; Долимов У. Жадид мактаблар: уларда она тили ва адабиёт ўқитишининг илмий-назарий ҳамда амалий асослари. Пед. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 44 б.; Келдиёрөв Р.А. Адабиёт дарслари самарадорлигини оширишининг илмий-методик асослари (Ўқитувчи касбий-маънавий фазилатлари асосида). Пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2001. – 137 б.; Абдувалитов Е.Б. Умумий ўрта таълим мактабларида кардош халқлар адабиётини қиёсий ўрганиш (таълим ўзбек, козоқ, қирғиз, корақалпоқ ва туркман тилларида олиб бориладиган мактабларнинг V–IX синflари адабiёт дарslari мисолида). Пед. фан. док. (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2020. – 252 б.; Қодиров В. Умумтаълим мактабларида мумтоз адабиёт намуналарини ўқитишининг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. (DSc) ... дисс. – Наманганд, 2019. – 271 б.; Юсупов Қ.А. Академик лицейларда корақалпоқ адабиётини ўқитиши методикаси. Пед. фан. док. (DSc) ... дисс. автореф. – Нукус, 2021. – 66 б.; Юлдашева Н.А. Адабий таълимда ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг илмий-методик асослари (умумий ва ўрта маҳсус таълим тизими мисолида). Пед. фан. док. (DSc) ... дисс. автореф. –

MDH davlatlari olimlari: G.I.Belenkiy, F.I.Volkov, V.A.Domanskiy, Y.N.Kolokolsev, A.S.Kurilov, Y.M.Lotman, T.F.Sigayeva, Z.S.Smelkovalar tomonidan, asosan, adabiyot o‘qitishda uning san’at asari sifatidagi xususiyatlariiga e’tibor qaratilsa<sup>4</sup>, O.Y.Bogdanova, B.M.Eyxenbaum, S.Kagan, V.G.Maransman, D.A.Mazilina, N.D.Moldavskaya, I.V.Rijkov, A.B.Yesin, V.I.Xazan; M.Abdusamadi, Q.Bitibayeva, T.Jumanova, J.A.Rustemova, A.Zairov<sup>5</sup>lar tomonidan adabiyot o‘qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, o‘quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini rivojlantirish muammolari yoritilgan.

Xorijda adabiyot o‘qitish mazmuni, asosan, badiiy matn ustida ishslash orqali til o‘rgatish, didaktik va filologik tahlil elementlarini uyg‘unlashtirish, asarni assotsiativ-kontekstli yondashuv nuqtayi nazaridan baholash masalalari A.Arikan, Y.Cevdet (Turkiya), C.J.Brumfit, R.A.Carter, M.N.Long, R.Walker, J.Collie, S.Slater, A.Maley, W.T.Littlewood (Buyuk Britaniya); A.Kelly, S.MsKay, P.Minkoff (AQSH); M.Khatip, A.H.Rahimi (Eron) kabi olimlarning izlanishlarida o‘z aksini topgan<sup>6</sup>.

---

Чирчик, 2022. – 65 б.; Турсунова М. Мадрасалар таълимида адабиёт ўқитиш усуллари. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2017. – 100 б.

<sup>4</sup> Беленъкий Г.И. Приобщение к искусству слова. – М.: Просвещение, 1990. – 192 с.; Волков Ф.И. Литература как вид художественного творчества. – М.: Просвещение, 1990. – 192 с.; Доманский В.А. Литература и культура. Культурологический подход к изучени. Словестности в школе. – М., 2002. – С. 82–91.; Колокольцев Е.Н. Искусство на уроках литературы. – Киев, 1991.; Курилов А.С. Зачем и какие уроки литературы нужны школе? // Русская словесность, 2004. – № 5. – С. 6–10.; Лотман Ю.М. Об искусстве. – СПб., Искусство-СПб, 1998. – 794 с.; Сигаева Т.Ф. Взаимодействие эмоционального и логического начал в читательской деятельности пятиклассника. Дисс. ... канд. пед. наук. – М., 1984. – 146 с. Смелкова З.С. Литература как вид искусства. Книга для учителя и учащихся. – М.: Флинта, 1997. – 280 с.

<sup>5</sup> Богданова О.Ю., Леонов С.А., Чертов В.Ф. Теория и методика обучения литературе. – М.: Академия, 2004. – 400 с.; Эйхенбаум Б.М. О принципах изучения литературы в средней школе // История литературного образования в российской школе: хрестоматия / авт.-сост. В.Ф.Чертов. – М.: 1999. – 290 с.; Каган М.С. Чтение как феномен культуры // избранные труды в 7 т. Т. 3. Труды по проблемам теории культуры. – СПб, 2008. – 717 с.; Маранцман Е.К. Методическая система развития образного и концептуального мышления школьников в процессе изучения литературных произведений. Дисс. ... док. пед. наук. – М., 2005. – 457 с.; Мазилина Д.А. Понятие “авторская позиция” как инструмент анализа литературного произведения в профессиональных образовательных организациях. Дисс. ... канд. пед. наук. – М., 2018. – 256 с.; Молдавская Н.Д. Литературное развитие школьников в процессе обучения. – М.: Педагогика, 1976.; Рыжкова И.В. Литературное развитие школьников в процессе диалога читателя и писателя. Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – СПб, 1998. – 21 с.; Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения. – М.: Флинта, Наука, 2000. – 163 с.; Хазан В.И. Психоло-педагогические основы преподавания в школе. – М.: Просвещение, 1988. – 256 с.; Абдусамади М. Методикаи таълими адабиёти тоҷик. – Душанбе, Ирфон, 2014. – 400 с.; Бітібаева Қ. Әдебиет пәнин оқытудың тиімді жолдары. – Алматы: Рауан, 1990. – 202 б.; Жұмажанова Т. Әдебиетті оқыту әдістемеси. – Алматы: Білім, 2009. – 288 б.; Рустемова Ж.А. Қазак әдебиетін оқыту әдістемеси: Оку құралы. – Қарағанды: “АҚНÝР” баспасы, 2019. – 164 б.; С.А.Зайров. Ташаккули салоҳиятҳои муюширатии хонандагони синфҳои болоии муассисаҳои таҳсилоти миёнаи умумӣ дар заманаи таълими фанни адабиёти тожик. Автореферати диссертация барои дарёғти дарачаи илмии номзади илмҳои педагогӣ. – Душанбе, 2022. – 52 с.

<sup>6</sup> Arikan, A. Student’s evaluation of literature courses in the language teacher education curriculum in Turkey. Ondokuz Mayıs Üniversitesi Eğitim Fakültesi Dergesi. 2005. – P. 77–85.; Yilmaz, Cevdet. Introducing Literature to an EFL Classroom: Teacher’s Instructional Methods and Student’s Attitudes Toward the Study of Literature. www.ccsenet.org/elt www.ccsenet.org/elt. English Language Teaching, 2012. Vol. 5. – № 1.; Brumfit, C.J. & Carter, R.A. Literature and language teaching. – Oxford: Oxsford University Press, 1986.; Carter, R. & Long, M.N. Teaching Literature. – Harlow, Essex: Lonman, 1991.; Carter, R., Walker, R. & Brumfit, C. Literature and the learner: metodological approach. Modern English Publications and Classroom and the British Counsel.; Collie, J. & Slater, S. Literature in the Classroom Cambridge, UK: Cambridge University Press, 1996.; Littkewwod W.T. Literature in the scool foreign-language course. In C.J.Brumfit and R.A.Carter (ed), Literature and language teaching. – Oxford: Oxford University Press, 1986. – P. 177–183.; Kelly, A., Collete (Ed). Children’s Literature: Discovery For A Life Time. – Arizona: Corsuch Scarisbrick Publisher, 1996.; MsKay S. Literature as content for ESL/EFL. In M.CelceMursia, Teaching English as asecond or foregn language. – Boston, Heinle&Heinle, 2001.; Minkoff P. Talking it over class. In A.Paran (ed), Literature in Language teaching and learning. – Virginia, TESOL, 2006.; Khatip, M. & Rahimi, A.H.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida integratsiyalab o‘qitish, o‘quvchilarning badiiy asarlarni o‘qish, tushunish, idrok etish va tahlil qilishga doir adabiy kompetensiyalarini shakllantirish, san’at hodisasi sifatida o‘qitishda badiiy asarlarning janriy xususiyatlarini musiqa, tasviriy san’at, dublyaj, kinosan’ati va amaliy san’atni kabi san’atning boshqa turlari bilan qiyosiy o‘rganish masalasi ayrim tadqiqotlarda yo‘l-yo‘lakay tilga olingan bo‘lsa-da maxsus tadqiq etilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq “O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishning zamонавиј metodikasi” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida integratsiyalab o‘qitishning metodologik asoslarini takomillashtirishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifaları:**

adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitishning metodologik asoslari tarkibida virtual ta’lim elementlarining muhim jihatlarini muvofiqlashtirish yo‘llarini aniqlashtirish;

adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitish mexanizmini takomillashtirishda adabiy-nazariy tushunchalar va estetik kategoriyalarning o‘rnini belgilash;

adabiyotni san’atning boshqa turlari bilan qiyoslab o‘qitishning integral belgilarini aniqlashga doir usullarni tizimlashtirish;

adabiy ta’limning an’anaviy didaktik ta’minotini takomillashtirishda innovatsion ta’lim vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlashtirish;

adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida integratsiyalab o‘qitish metodikasini o‘quvchilarning badiiy-estetik kompetensiyalarini shakllantirishga doir metod va usullar asosida takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida umumiy o‘rta ta’lim maktablari 5–11-sinflarida adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariiga Andijon, Namangan va Toshkent viloyatlari maktablaridan 1337 nafar o‘quvchi jalg etilgan.

**Tadqiqotning predmetini** umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, so‘rovnoma, suhbat, taqqoslash, umumlashtirish, tavsiya etilgan metodikaning samaradorligini tekshirish, natijalarni matematik-statistik qayta ishslash usullaridan foydalanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitishning metodologik asoslari o‘quvchilarning intellektual-estetik rivojlanishiga hissiy-refleksiv ta’sir ko‘rsatuvchi

didaktik materiallarni o‘zlashtirishga doir virtual zamon, virtual makon, virtual detal kabi virtual prototiplardan muqobillarini tanlash va ta’lim jarayoniga muvofiqlashtirish orqali ochib berilgan;

adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitish mexanizmi adabiy-nazariy tushunchalar va san’atning barcha turlariga xos obrazlilik, badiiylik kabi hissiy-emotsional kategoriyalarning mushtarak xususiyatlarini assotsiativ kontekstlar bilan o‘zaro qiyoslash asosida takomillashtirilgan;

adabiyotni tasviriy san’at, musiqa, haykaltaroshlik, kino san’ati, amaliy san’at namunalari bilan qiyoslab o‘qitish usullari ijodkorlarning obraz yaratish mahorati, san’at turlari materiali, obrazlilikning muayyan voqeа-hodisa va his-tuyg‘ularda aks etishiga integrativ yondashuv, muallif nuqtayi nazarining o‘quvchi badiiy-estetik tafakkuri rivojiga ta’siri, ruhiyat tasvirida ijodiy an’ana va individuallik tamoyillari asosida ochib berilgan;

adabiy ta’limning an’anaviy didaktik ta’minoti blok, tadqiqot, loyiha himoyasi darslari, ijodiy tanlama kurslar, to‘garak mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirishga doir badiiy-tarixiy, biografik va lingvistik bilimlar integratsiyasi asosida takomillashtirilgan;

adabiyotning o‘quv fani va san’at turi sifatidagi xususiyatlarini integratsiyalab o‘qitish metodikasi topshiriq-taqdimot, nostonart fikrlash, noodatiy g‘oyalar, nuqtayi nazarning o‘zgarishi kabi lateral-kreativ, hissiy-obrazli anglash metodlari tarkibiga kiruvchi asar qahramoni nomidan xayoliy xat yozish, “yo‘qolgan” epizodni qayta tiklash, “mantiqiy mikrofon”ni uzatish, burime usullarini o‘quvchilarning badiiy-estetik kompetensiyalarini shakllantirishga izchil va tizimli yo‘naltirish orqali takomillashtirilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitishning metodologik asoslari adabiyotshunoslik, tilshunoslik, pedagogika, didaktika, psixologiya, falsafa, tarix va estetika fanlari tajribalariga aloqadorlikda tadqiq qilingan;

“Adabiyotni fan va san’at turi sifatida o‘qitishning konseptual asoslari”, “Mutolaa madaniyati va o‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi” nomli monografiyalar; “Adabiy ta’limda zamonaviylik: tajriba va motivatsiya” nomli uslubiy qo‘llanma hamda hammualliflikda Ijod mакtablarining 8–9-sinflari uchun “Adabiyot” darsliklari yaratilgan;

adabiyot – san’at – madaniyat mavzulari integratsiyalashgan dasturlar ishlab chiqilgan va ulardan fakultativlar, adabiy-ijodiy to‘garaklar faoliyatini tashkil etishda foydalanilgan;

badiiy asarga shaxsiy munosabatni shakllantirish, muallif nuqtayi nazarini o‘rganish bo‘yicha maxsus yo‘naltirilgan darslarning metodik modellari ishlab chiqilgan;

tadqiqot natijalaridan oliv ta’limda “Adabiyot o‘qitish metodikasi”, “Adabiy ta’limda innovatsion yondashuv” fanlari o‘quv dasturlari mazmunini takomillashtirishda foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoga falsafiy, pedagogik, psixologik va metodik yondashish, adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitish metodologiyasi bo‘yicha respublikamiz va chet ellik olimlar qarashlari,

amaliyotchi o‘qituvchilarning tajribalariga tayanilgani, tadqiqot vazifalariga mos yondashuvlar tanlangani, o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari nazariy va amaliy tasdig‘ini topgani, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida asoslangani, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani; xulosa va tavsiyalar amaliyotga joriy etilgani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitishga doir pedagogik-psixologik, metodik, falsafiy, estetik, lingvistik qarashlar va nazariy yondashuvlarning metodologik asoslari takomillashtirilgani, adabiyot o‘qitish jarayonini uning san’at turi sifatidagi xususiyatlari bilan integratsiyalash, adabiy asarlarni san’atning boshqa turlari bilan qiyoslab o‘rganish, “muallif – asar – kitobxon” uchligida muallif nuqtayi nazari, ijodkor kitobxon, adresat va kitobxon obrazni tushunchalariga aniqlik kiritilgani, asar tahlilining o‘quvchilar badiiy-estetik tafakkuri rivojiga ta’siri ilmiy-metodik jihatdan dalillangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitish mazmunini kreativ yondashuvlar orqali tashkil etish, adabiy ta’lim maqsadiga mos metod va usullarni joriy etish, “Adabiyot” darsliklari, “O‘qituvchi kitobi”, metodik qo’llanmalar yaratish, o‘quvchilar ma’naviyatini yuksaltirish, badiiy-estetik didini o‘stirish texnologiyasini takomillashtirishga xizmat qilishi, shuningdek, tadqiqot natijalaridan o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida metodik tavsiyalar sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitishning metodologik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitishning metodologik asoslari o‘quvchilarning intellektual-estetik rivojlanishiga hissiy-refleksiv ta’sir ko‘rsatuvchi didaktik materiallarni o‘zlashtirishga doir virtual zamon, virtual makon, virtual detal kabi virtual prototiplardan muqobillarini tanlash va ta’lim jarayoniga muvofiqlashtirishga doir takliflar va ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2022-yillar bajarilgan PZ-2020042022-raqamlı “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihsida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 20-iyundagi 01/10-1235-son ma’lumotnomasi). Natijada virtual ta’lim texnologiyalarini qo’llash orqali adabiy ta’lim samaradorligiga erishish imkoniyati ortgan;

adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitish mexanizmi adabiy-nazariy tushunchalar va san’atning barcha turlariga xos obrazlilik, badiiylik kabi hissiy-emotsional kategoriyalarning mushtarak xususiyatlarini assotsiativ kontekstlar bilan o‘zaro qiyoslash asosida takomillashtirishga doir taklif va xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2020–2023-yillarga mo‘ljallangan AM-F3-201908172-raqamlı “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihsida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 20-iyundagi 01/10-1238-son ma’lumotnomasi). Natijada ta’lim oluvchilarning adabiy

kompetensiyalarini adabiy-nazariy tushunchalar va estetik kategoriylar uyg‘unligida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari yaratilgan;

adabiyotni tasviriy san’at, musiqa, haykaltaroshlik, kino san’ati, amaliy san’at namunalari bilan qiyoslab o‘qitish usullari ijodkorlarning obraz yaratish mahorati, san’at turlari materiali, obrazlilikning muayyan voqeа-hodisa va his-tuyg‘ularda aks etishiga integrativ yondashuv, muallif nuqtayi nazarining o‘quvchi badiiy-estetik tafakkuri rivojiga ta’siri, ruhiyat tasvirida ijodiy an’ana va individuallik tamoyillari asosida ochib berish bo‘yicha takliflardan Ijod mакtablarining 8-sinf “Adabiyot” darsligini yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va mакtab ta’limi vazirligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligining 2023-yil 5-iyundagi 01-11-767-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘quvchilarining analitik o‘qish, adabiy matn bilan ishlash va asar mohiyatini idrok etish ko‘nikmalarini rivojlantirishning o‘quv-metodik ta’minoti takomillashtirilgan;

adabiy ta’limning an’anaviy didaktik ta’minoti blok, tadqiqot, loyiha himoyasi darslari, ijodiy tanlama kurslar, to‘garak mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilarining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirishga doir badiiy-tarixiy, biografik va lingvistik bilimlar integratsiyasi asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar Ijod mакtablarining 9-sinf “Adabiyot” darsligi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va mакtab ta’limi vazirligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligining 2023-yil 5-iyundagi 01-11-767-son ma’lumotnomasi). Natijada adabiy ta’limning ilmiy-metodik, didaktik va estetik talablarini adabiyot darsliklari mazmuniga singdirishning pedagogik imkoniyatlari boyitilgan;

adabiyotning o‘quv fani va san’at turi sifatidagi xususiyatlarini integratsiyalab o‘qitish metodikasi topshiriq-taqdimot, nostonart fikrlash, noodatiy g‘oyalar, nuqtayi nazarning o‘zgarishi kabi lateral-kreativ, hissiy-obrazli anglash metodlari tarkibiga kiruvchi asar qahramoni nomidan xayoliy xat yozish, “yo‘qolgan” epizodni qayta tiklash, “mantiqiy mikrofon”ni uzatish, burime usullarini o‘quvchilarining badiiy-estetik kompetensiyalarini shakllantirishga izchil va tizimli yo‘naltirish orqali takomillashtirishga oid tadqiqot natijalaridan “Adabiyot” darslik-majmualari, o‘qituvchilarga mo‘ljallangan metodik qo‘llanmalar yaratishda foydalanilgan (Maktabgacha va mакtab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika Ta’lim markazining 2023-yil 24-iyulndagi 01/11-01/6-647-son ma’lumotnomasi). Natijada adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida integratsiyalab o‘qitish samaradorligi adabiy ta’limning optimal mazmuni va maqsadiga muvofiq zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilingani.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 37 ta ilmiy-metodik ish, jumladan, 2 ta monografiya, 3 ta darslik, 1ta uslubiy qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 17 ta maqola, shundan 14 tasi respublika va 3 tasi xorijiy журнallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, tavsiya, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, hajmi 245 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqot mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarining joriy etilgani, aprobatasiysi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Umumta’lim maktablarida adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitishning nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlangan bo‘lib, unda adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitish ta’limiy muammo sifatida o‘rganilgan; adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitishning mavjud holati yoritilgan; adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari tahlilga tortilgan.

Ona tili va adabiyot fanlarining yagona filologiya ta’limi yo‘nalishidagi birligini qayd etgan holda, har ikkisining o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq. Adabiyotning boshqa fanlar orasida o‘ziga xosligi bir qator omillarga tayanadi. Dastlabki omil o‘rganish obyektiga daxldor. Zero, aksariyat fanlarni o‘qitish mazmuni o‘rganilayotgan fan asoslariga bog‘liq bo‘lsa, adabiyotning bosh o‘rganish obyekti nafaqat bilim faoliyatining ilmiy jihatdan shakllantirilgan natijasi, balki yozuvchi ijodiy faoliyati, ya’ni badiiy asarda dunyoni bilish ko‘rinishida aks ettirish hisoblanadi. Ikkinchchi omil bevosita birinchisini taqozo etadi. San’at asarini o‘rganish noyob madaniy artefakt sifatida ilmiy, estetik, ekzistensial va kommunikativ kabi xususiyatlarga bog‘liq. Badiiy matn ilmiy tadqiqot obyekti bo‘lgan asarni tahlil qilish, sintezlash, tadqiq etish, taqqoslash, umumlashtirish kabi usullar bilan uzviylikda tahlil qilinadi. Badiiy asarlarni o‘rganishga ilmiy jihatdan yondashish mohiyatan adabiyot o‘quv fani asoslarini o‘zida mujassam etuvchi boshqa akademik fanlarning muhim obyekti sanaladi.

Muammoning estetik jihatni badiiy matnni so‘z san’atining in’ikosi sifatida ko‘rishdan iborat. Asarning badiiy shakli san’atning boshqa turlari bilan ham asoslanadi. Asarni o‘rganishning uchinchi jihatni yozuvchining koinot va inson haqidagi g‘oyasini aks ettiruvchi badiiy asar mazmunini semantik tushunishdan iborat ekzistensial yondashuvni anglatadi. Badiiy matnni o‘qib-o‘rganishga doir bunday yondashuv turlicha dunyoqarash va pozitsiyaga ega o‘quvchilar uchun nihoyatda qiziqarli bo‘lib, aql-idroki va irodasiga hissiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa, adabiy ta’limning zarur jihatni bo‘lib, o‘quvchilarda muammoga nisbatan turli munosabatni shakllantiradi.

Kommunikativ deb ataladigan navbatdagi yondashuv asar matnnini uning dialogik tabiatini tarkibida ko‘rib chiqish imkonini beradi: muallif, zamon, tarixiy va adabiy kontekst, turli davr va kitobxonlar bilan o‘zaro munosabat; fanlararo aloqa; boshqa san’at turlariga integrativ yondashuv shular jumlasidandir. Ayonlashadiki, badiiy asarlarni adabiyotshunoslik, tilshunoslik, etika, estetika, aksiologiya, madaniyatshunoslik, psixologiya, din, falsafa kabi ilmiy bilimlarning turli sohalari

bilan integratsiyalab o‘rganish adabiyotning mohiyatini yanada oydinlashtiradi.

Adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitish qonuniyatları barqaror rivojlanib va takrorlanib turuvchi voqeа-hodisalarining izchil aloqadorligi bilan bog‘liq. Adabiyot o‘qitish qonuniyatları kishilik jamiyatida tarkib topishi, hayot sinovlaridan o‘tishi va tajribalarda takomillashishini tahlil qilish jihatidan ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Adabiyotni o‘quv fani sifatida o‘qitish metodologiyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Ijtimoiy hayot hodisalarining badiiy tarzda gavdalantirilishi, obrazliligi, adabiyotning so‘z san’ati sifatidagi xususiyatlarini adabiy-nazariy tushunchalar, integratsiyalashgan ta’lim usullari vositasida o‘rgatish.

2. Adabiy ta’limning yangilanishga ehtiyoj sezilgan muhim muammolari yechimini izlash va tushunish.

3. O‘quvchilar jamiyatdagi yangilanishlar, sharqona tarbiya mohiyatini o‘zlashtirishlari bo‘yicha o‘qitishning turli shakl, usul, metod, texnologiyalarini adabiyotshunoslik, pedagogika, didaktika, psixologiya, mantiq, tarix, metodika va estetika kabi fanlarning so‘nggi yutuqlari bilan bog‘lash.

4. Ta’lim jarayonida o‘quv dasturlari, predmeti va o‘qitish metodikasiga oid davlat hujjaligiga tayanish, ilmiy-metodik farazlar, xulosalar, tadqiqotlar yakunini umumlashtirish.

5. Subyekt (ta’lim beruvchi) – darslik – subyekt (ta’lim oluvchi) aloqalariga tayanish.

6. O‘quvchilarni darslik va badiiy asarlar ustida ishslash usullari bilan tanishtirish.

7. Badiiy adabiyotning ijodiy qonuniyatları, so‘z san’ati sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlarini muayyan asarlar tahlili misolida tushuntirib borish.

8. O‘quv adabiyotlari ustida ishslash orqali o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyati samaradorligini ta’minalash.

9. Adabiy asarning badiiy-estetik mohiyatini undagi qahramonlar, sahnalar, tabiat tasvirlari, dialoglar kabi komponentlari vositasida o‘rganish va hk.

Mazkur tadqiqotda adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitishda ilm-fan taraqqiyoti va jamiyat hayotining axborotlashuvi talablari ko‘zda tutilib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida badiiy bitiklar sujeti, qahramonlar va obrazlilikning virtual prototiplarini yaratish g‘oyasi yoritildi. Adabiyotni virtual muhitda o‘qitish, virtual borliq, virtual obraz, virtual detallarni yaratish, ularning o‘rganilayotgan asarga muvofiq jihatlarini belgilash va amalga tatbiq etish mazmuni nazariy jihatdan tahlilga tortildi.

Adabiyotni san’at hodisasi sifatida o‘qitish mazmuni, avvalo, asar ma’nosi bilan chambarchas bog‘liq. Bunda u turli mafkuraviy ta’sirlardan xoli, muallif niyati va asarning estetik mohiyatini ochishga imkon qadar yaqin bo‘lishi talab etiladi. Adabiyotni san’at turi sifatida o‘qitishning bir qator talablari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: a) badiiy asarga estetik hodisa sifatida yondashish; b) o‘quv tahlili imkoniyatlaridan keng foydalanish; d) badiiy matn zaminidagi semantik polifoniyanı idrok etish va uni darsning dialogik tuzilishiga yo‘naltirish. Kuzatishlardan ma’lumki, o‘quvchilar aksariyat hollarda matn nafosatini sezmaydilar. Ular, asosan, qahramonlar taqdiri, hayot tarzi, o‘zaro munosabatlari va

ziddiyatlari bilan tanishadilar, o‘zlarini ularning o‘rnida tasavvur qiladilar. Qahramonga hamdardlik – bu asarni tushunishning muhim sharti, ammo bu so‘z qudratini his qilish uchun yetarli emas. Zero, bu o‘rinda asar estetik hodisa sifatida idrok etilmaydi, balki odatdagiday hikoya tarzida o‘qiladi. Bu kabi mutolaa shakli o‘quvchida faqatgina tushunish illyuziyasini hosil qiladi. Asardagi har bir belgida o‘zini ko‘rgani bois o‘quvchini ijodga yo‘naltiradigan faoliyatga undash – illyuziyani bartaraf etish joiz.

Adabiyotni san’at turi sifatida o‘qitishda o‘quvchilar so‘z sehri, uning estetik xususiyatini anglashlariga erishish yo‘llarini optimallashtirish maqsadga muvofiq. Asarning qanday yozilganiga e’tibor qaratish orqaligina o‘quvchi o‘qishdan estetik zavq oladi. Boshqacha aytganda, asar poetikasini tahlil qilmasdan turib uning g‘oyaviy-badiiy mohiyatini, ma’nosini chinakamiga anglab bo‘lmaydi. Asarning badiiy tilini tahlil qilish muayyan madaniyatning o‘zida aks etgan dunyoviy tasvirini idrok etishga yo‘l ochadi – badiiy bitik zamiriga singdirilgan integral ma’noni faqat poetik tahlili orqali kashf qilish imkonи mavjud. Fikrimizcha, asosan, so‘z bilan ishlangani bois, adabiyot darslarini san’at darslari deb atash to‘g‘ri bo‘ladi. Yodda tutish zarurki, estetik did va badiiy tafakkur rivojiga asar mazmunining teranligi, ta’sirchanligi, muallif niyatining samimiyligi va xolisligi bilan erishiladi. Biroq o‘qituvchi faqat shunga e’tibor qilish bilan cheklanib qolmasligi, balki ijodkor, qahramon va kitobxon-o‘quvchini ham unutmasligi darkor. Bundan adabiyot darslari adabiyotshunoslikka doir bilimlar va so‘z san’atining yaxshi o‘zlashtirilgan namunasi bo‘lishi kerak, degan xulosa kelib chiqadi.

Adabiyot akademik fan bo‘lishi mumkinmi? Adabiyotning voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettirishi, ma’naviy tarbiyalashi va estetik zavqlantirishi kabi xususiyatlariga tayanilsa, aynan san’at hodisasini o‘rganish akademik fanning asosi ekani aniq bo‘lib qoladi. Muammoga oid tadqiqotlarni tahlil qilish davomida metodologiya tushunchasining ensiklopedik, ilmiy-falsafiy nashrlarda, shuningdek, yetakchi olimlarning izlanishlarida turlicha talqinlari mavjudligini kuzatdik. Buning obyektiv sabablari sifatida fanning rivojlanishi, jamiyatning axborotlashuvi hamda iqtisodiyotning globallashuvi kabilarni ko‘rsatish mumkin. Jumladan, “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da mazkur tushunchaga quyidagicha ta’rif beriladi: “Metodologiya (metod va logiya so‘zlaridan) – tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ta’limot. Metodologiya metodlar haqidagi ta’limot yoki yalpi-umumiy bilish metodi deb ham yuritiladi. Metodologiya metodlarga va umuman voqelikka qanday yondashish yo‘lini o‘rgatadi”<sup>7</sup>.

Rus faylasufi G.I.Ruzavin metodologiyaning asosiy maqsadi sifatida yangi bilimlar olish va ularni asoslashga oid usul, vosita va metodlarni o‘rganish ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, olim metodologiya ilmiy bilimlar tuzilishi, bilish shakllari tizimi, ularning o‘rni va ahamiyatini tahlil qilish usullarini o‘rganishni o‘z ichiga olishini ham e’tirof etish orqali quyidagi xulosaga keladi: “Metodologiya – fikrlash va faoliyatni tashkil etishning umumiy tamoyillari va shakllari haqidagi fan”<sup>8</sup>.

<sup>7</sup> Ўзбекистон миллый энциклопедияси. М ҳарфи. – Тошкент: “Ўзбекистон миллый энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. www.ziyouz.com. – 461-б.

<sup>8</sup> Рузавин Г.И. Методология научного исследования: Учеб. пособие для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 1999. – С. 7.

D.A.Novikov metodologiya tushunchasini izohlashda uni “faoliyatni tashkil etish haqidagi ta’limot”<sup>9</sup> ligiga urg‘u beradi.

Adabiyotshunoslikda ham metodologiya tushunchasi xususida turlicha qarashlar mavjud. Adabiy tanqid metodologiyasini tadqiq etgan professor Q.Qahramonov metodologiyani nafaqat “barcha ilmiy-ijodiy kashfiyotlarni tadqiq etishning turli xil vosita va usullari majmuyi”, balki bilish metodlari sifatidagi talqiniga e’tibor qaratadi. Olimning fikricha, yuqorida sanab o’tilgan ta’riflar metodologiyaning barcha jihatlarini to’liq qamrab ololmaydi. “Ilmiy bilish metodlari, umumiylar va xususiy tadqiq usullari kam o’zgaruvchan bo’lib, albatta, birinchi galda uning mohiyati, mazmun doirasi istilohga muhtoj bo’ladi. Shunga ko’ra, ilm-fandagi yangilanish, eng avvalo, ilmiy tafakkurdagi, demakki, dunyoqarashdagi evrilibishlar bilan bog’liq jarayondir”<sup>10</sup>.

Adabiyotshunos B.Karimovning yozishicha, “metodologiya tadqiqotchiga yo’nalish beradi. Bu soha olimning shaxsiy izlanishlari davrida shakllanib muqimlashadi. Natijada obyektning qaysi jihatlarini qanday metod asosida bajarish lozimligi ko’rinadi. Metodlar nisbatan neytral bo’lib qolishi ham mumkin, ya’ni bir metoddan turli dunyoqarashga ega olim badiiy asar talqinida o’z ijodiy niyatidan kelib chiqqan holda foydalanadi”<sup>11</sup>. Garchi o’quv fanlari mazmuni turlicha bo’lsa ham, ko’zlangan natijaga olib keluvchi tamoyillar, metodlar, usullar, vosita va shakllar bir nuqtada birlashishini qayd etish mumkin.

O’quvchilar adabiyotni so‘z san’ati sifatidagi mohiyatini idrok etishlari uchun uning o’quv fani sifatidagi xususiyatlarini muvofiqlashtirish va integratsiyalash muhim sanaladi. Bu borada pedagog olim A.Choriyev ta’kidlagan quyidagi fikrlarga diqqat qilish joizdir: “Adabiyotshunoslardan badiiy asarlardagi pedagogik g’oyalarni o’z imkoniyatlari darajasida tanqidiy tahlil qilishdan nariga o’ta olmaydilar. Pedagoglar badiiy asar sifatida uning ilmiy va amaliy ahamiyatini yetarli hisoblamaydilar”<sup>12</sup>.

Bizningcha, adabiyotni o’quv fani va san’at turi sifatida o’qitish metodologiyasi faqat adabiy ta’limdagi mavjud nazariyalar majmuyi bo’lmay, balki axloqiy-estetik tarbiya bilan bog’liq tafakkurdagi o’zgarishlar, jamiyatdagi yangilanishlar hisobiga boyib, to’ldirilib boriladigan amaliy faoliyatga doir ilmiy-metodik tamoyillar yig‘indisidir. Tadqiqotda mazkur muammoga adabiyot o’qitishning metodologik asoslari tarkibiga axborotlashuv talablariga muvofiq mediata’lim elementlarini integratsiyalash misolida e’tibor qaratildi. Zero, tafakkurdagi o’zgarishlar tuyg‘ular bilan ta’sirlashib, qalb tozarishlarini ta’minlasa, ilmiy nuqtayi nazardan ixtiro va kashfiyotlar orqali o’z in’ikosini topadi. Adabiyotni san’at turi sifatida o’qitishda o’quvchilarning ijodiy faolligiga tayaniladi. Bunda badiiy matn muallifining faoliyatiga yaqin yondashuv taqozo etiladi. Har bir dars kontekstida so‘z san’ati, adiblar ijodiga xos individuallik va adabiy taraqqiyotning muayyan davrini o’rganish adabiyotni o’quv fani sifatida o’qitishning ajralmas qismi sifatida e’tibor qaratishni nazarda tutadi.

<sup>9</sup> Новиков А.М., Новиков Д.А. Методология словарь системы основных понятий. – М.: Либроком, 2013. – С. 208. – С. 208.

<sup>10</sup> Каҳрамонов Қ. Адабий танқид: янгиланиш жараёнлари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 11-б.

<sup>11</sup> Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент: Мухаррир, 2011. – 11-б.

<sup>12</sup> Чориев А., Чориев И. Педагогиканинг методологик асоси ва илмий тадқиқот методлари. – Тошкент: Nishon noshir, 2016. – 49-б.

Jamiyat hayotining axborotlashuvi adabiyot o‘qitish kechimiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmadi, albatta. Bu jihat “Milliy o‘quv dasturi”ning mazmunan boyib, janr va mavzu jihatidan rang-barang bo‘lishiga, ayniqsa, sarguzasht, detektiv, ilmiy-fantastik asarlarning tanlanishi yoki darsliklarda adabiy-nazariy tushunchalarni o‘quvchi qo‘llay oladigan yo‘sinda taqdim etilishi, didaktik materiallarning hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishi maqsadi bilan berilishida yaqqol namoyon bo‘ldi. Shu nuqtayi nazardan olinganda adabiy bitiklarni o‘rganish masalasiga ularning tabiatidan kelib chiqib yondashish, avvalgi va yangi avlod darsliklari, metodik qo‘llanmalarining didaktik tizimini o‘zaro qiyoslash asosida munosabat bildirildi.

Adabiyot darslari muhim tarbiyaviy birlik bo‘lgani uchun ta’lim paradigmاسини о‘зgartиришга доир yangi g‘oyalар та’лим jarayонining мазмун-mohiyатига та’sir ко‘rsatmay qolmaydi. Bundan tashqари, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillarini amalga oshirish darslarini tashkil etishga doir yangi usul va texnologiyalarni izlashga sabab bo‘ladi. Masalan, virtual borliq bu – ma’lum sabablarga ko‘ra tabiiy holda o‘tkazishga imkonsiz tajribalarni kompyuterda pedagogik dasturiy vositalar orqali belgili-grafik tarzda sun’iy yo‘l bilan bilan amalga oshirish mumkin bo‘lgan interaktiv texnologiya. Bunda voqelikni sezgi organlari orqali idrok etish o‘rnini multimedia vositalari asosida maxsus hosil qilingan muhit – makon, zamon, obrazlilik, obraz va detallar egallaydi. Virtual borliqni reallikda ko‘z bilan ko‘rish imkoniyati mavjud bo‘lmasa ham, foydalanuvchi kompyuter qurilmalari yordamida yaratilgan xayoliy olamga kiradi. Natijada jarayonni kuzatishi, ishtirok etishi, ta’sir ko‘rsatishi, mustaqil harakatlanishi va muayyan darajada uni o‘zgartirishi mumkin bo‘ladi.

Bizningcha, adabiy ta’limda virtual texnologiyalardan foydalanish qahramonlar qismatidagi ayanchli kunlar, fojialar, ular yo‘l qo‘ygan xatolar sabablarini aniqlab, tahlil qilib, xayolan “ortga qaytish” yo‘li yoki kelgusida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqealarni faraz qilish orqali sujet chizig‘ida harakatlanish, o‘sha lavhalarni turli rakurslarda ko‘rish imkoniyatini yaratishi yoxud asardagi hayotni virtual gavdalantirishi bilan xarakterlanadi. O‘quvchi “Agar qahramon o‘sha holatda boshqacha yo‘l tutganida voqeа qanday bo‘lishi mumkin edi?” degan faraz bilan voqealar rivojiga ta’sir ko‘rsatsa, ma’lum ma’noda sujetga zid holat kuzatilishi mumkin. Bu jihatni, albatta, dasturchi va g‘oya muallifi avvaldan ko‘zda tutgan va rejalahtirgan bo‘lishi zarur.

Biz mazkur tadqiqot ishimizda badiiy bitiklarni virtual muhitda o‘rganishga doir virtual (real hayotdagi illyuziyani kompyuterda yaratish) prototiplar (san’at turlarida voqelikni badiiy o‘zlashtirish materiali): virtual zamon, virtual makon, virtual detal kabi tushunchalarni kiritish maqbul deb hisobladik. Ularning an’anaviy tushunchalardan farqli jihat barchasi pedagogik dasturiy vositalar yordamida hosil qilinishi, o‘qituvchi va dasturchi hamkorligida ishlanishi, maxsus virtual xonalar yaratilishida ko‘rinadi. Bunda muayyan sinf o‘quv dasturiga alohida yondashish taqozo etiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning yoshi, moyilliklari, asarning janr xususiyati, mavzusi, unda ko‘tarilgan muammolar kabi omillar diqqat markazida bo‘ladi.

**“Umumta’lim mакtablarida adabiyotni o‘quv fani sifatida o‘qitish metodikasi”** nomli ikkinchi bob adabiy ta’limda adabiy-nazariy tushunchalar va

ilg‘or pedagogik tafakkur tadriji; adabiy-nazariy tushunchalar vositasida o‘quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish usullari; adabiyotni o‘quv fani sifatida o‘qitish orqali o‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan.

Har qanday asarda o‘z ahamiyatiga ko‘ra eng katta semantik yukni ko‘taradigan alohida so‘zlar guruhi kompozitsiya yaratish, qahramon obrazi, harakatlar rivojlanishi, shuningdek, g‘oyaviy-tematik mazmunni shakllantirish uchun o‘ziga xos asos sanaladi. Bunday so‘zlar kalit so‘zlar deb ataladi. Ularning asosiy xususiyati asarning umumiyligi mazmuniga tegishli bo‘lib, qahramonlar xarakteridagi individuallikni ochishga, matnni hissiy idrok etishga, ifodalangan xoslikni aniq va mos so‘zlar orqali tasvirlashda namoyon bo‘ladi. O‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarni matndan tayanch so‘zlarni topish, ularning konseptual mohiyatini aniqlash va ko‘p qirrali tushunchalariga asoslanib, matn maydoniga tegishli xususiyatlarni o‘zlashtirishga o‘rgatishdir. O‘qituvchi o‘quvchilar kalit so‘zlearning mohiyatini tushunishlari uchun quyidagicha algoritmnini taklif qilishi maqsadga muvofiq:

1) “Izohi lug‘at”dan so‘zning lug‘aviy ma’nosini, “Etimologik lug‘at”dan kelib chiqishini aniqlash; 2) so‘zning assotsiativ sohasini tuzish, ya’ni “Bu so‘z qanday so‘zlar bilan assotsiatsiyalar hosil qiladi?” degan savolga javob topish; 3) so‘zni o‘z ichiga olgan maqol va matallarni aniqlash; 4) qahramon obrazi, turmush tarzi, dunyoqarashi va xatti-harakatlarini ifodalashda qo‘llangan so‘zlarni aniqlash; 5) so‘zning g‘oyaviy-mavzuviy rolini, butun ishning mazmunini baholash va hk.

Bugungi kungacha maktabda o‘rganiladigan adabiy-nazariy tushunchalarning hajmi, tizimi va ketma-ketligi masalasi munozarali bo‘lib qolmoqda. Amaldagi o‘quv dasturlari va darsliklar tarkibida nazariy ma’lumotlarga o‘rin ajratilsa-da, zamonaviy estetika va adabiyot nazariyasining ajralmas asosiy kategoriyalari – muallif, asar, kitobxon tushunchalari e’tibordan chetda qolgan. 5-sinfdan boshlab muallif nuqtayi nazarini ifodalash usullarini aniqlashga yo‘nalish berish, badiiy asarni o‘rganish bilan bog‘liq dunyo tasviri, kompozitsiya va badiiy nutq kabi tushunchalar to‘plamini shakllantirish masalasi ta’minlanishi zarur. Asar yaratish jarayonida yozuvchi ongida o‘zining faraziy kitobxoni haqida fikr paydo bo‘ladi. U ijodkorga “sherik”, uslub yaratuvchi omil vazifasini bajaradi. Muallif va kitobxon kategoriyalari, avvalo, uslub kategoriyasi asosida bog‘langan. “Asar – kitobxon” quyi tizimi turli kategoriya va tushunchalar o‘rtasidagi munosabatni aks ettiradi. Asar kategoriyasi kitobxon kategoriyasi bilan bog‘lanib, idrok etish qobiliyati tushunchasi funksionalligini ko‘rsatadi. Asarning o‘quvchiga ta’siri janri bilan belgilanadi, bu ayni paytda muallif “mavjudligi”ni ham aks ettiradi. Asarda berilgan ko‘rsatmalarga amal qilgan kitobxon muallif belgilab bergen yo‘ldan boradi.

Badiiy asarni idrok etuvchi shaxs uni yaratuvchi muallif-ijodkor shaxsiyati ichiga chuqur kirib borishi, ya’ni muallif-insonni tushunishga yo‘l ochadi. Bir tomonidan, tarjimayi hol sohibi va ijodiy faoliyat subyekti; boshqa tomonidan esa, muallif obrazi, uning takrorlanmas individualligi, asarlari orqali muallif nuqtayi nazarini tahlil qilish metodlarini qo‘llash imkoniyatlarini oshiradi. Tadqiqotda yozuvchi shaxsi va ijodini o‘rganishning metodik tizimi O‘.Hoshimovning “Ikki eshik orasi”, T.Murod shaxsiyati va ijodi yoritilgan turli variantdagi tarjimayi hollarni o‘rganish misolida ishlab chiqildi. U o‘z ichiga yozuvchi ma’naviy qiyofasini qayta

yaratish, ya’ni muallif obrazini ko‘rib chiqish → muallif nuqtayi nazarini idrok etishga e’tibor qaratgan holda bir qator asarlarni o‘qish va tahlil qilish; muallifning matnda ishtirok etish shakllarini tushunishni qamrab oladi.

Muallif ifoda etayotgan fikrni o‘quvchining qay darajada idrok etishi, asar “tili”ni nechog‘li tushuna bilishi uning kitobxonlik darajasini namoyon etadi. Shu o‘rinda muallif nuqtayi nazarini tushuna bilish o‘quvchidan alohida tayyorgarlikka ega bo‘lishni taqozo etishi sir emas. Mazkur jarayonni “qayta yaratib, qayta ishslash” tarzida nomlash maqsadga muvofiq. Adabiyotni o‘rganish jarayonida badiiy matnni chuqur idrok etishning samarali usullaridan biri bu asosiy bilimlardan foydalanishdir. Zero, maktab amaliyotida matnni tahlil qilishda doimo tarixiy faktlar, adabiy va biografik bilimlarga tayaniladi. Asosiy bilimlar axborot va madaniy xususiyatlarga ega, ularsiz matnni tushunish mumkin emas. Adabiyotni o‘quv fani sifatida o‘qitishda asosiy bilimlarni uch guruhga ajratish mumkin:

1. *Tarixiy-madaniy bilimlar*: asar voqealari sodir bo‘lgan davr haqida ma’lumot (harakat joyi, siyosiy, ijtimoiy, geografik va iqtisodiy sharoitlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar); tasvirlangan davr hayoti haqida ma’lumot (kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy-joy, jihozlar va hk.); davr madaniy hayotining xususiyatlari (fan va ma’rifat, an’ana va urf-odatlar, san’at, din, mifologiya, madaniy hodisalar va boshqalar) haqida ma’lumot.

2. *Biografik bilimlar*: yozuvchining hayoti, ijodiy yo‘li; shaxsiyati, dunyoqarashi; ijtimoiy-siyosiy faoliyati.

3. *Adabiy bilimlar*: adabiy-nazariy ma’lumotlar; tarixiy va adabiy ma’lumotlar (asarni yozish davridagi adabiy jarayonning xususiyatlari, bu davr adabiy yo‘nalishlari bilan bog‘liqligi; asarning yozilish tarixi); adabiy-tanqidiy ma’lumotlar (ma’lum bir davrdagi adabiy tanqidning xususiyati, asarning yozuvchi ijodi va adabiyotda tutgan o‘rni).

Badiiy asarlarni o‘rganishda badiiy analogiya izlarini topish qiyosiy tahlil va o‘xshashlik mohiyatini izohlash imkonini beradi. Analogiyaga asoslangan qiyoslash badiiy matnning muayyan komponentini assotsiativ kontekstga muvofiq tadqiq etishni taqozo qiladi. Masalan, quyidagilar bunday faoliyat uchun asos sanaladigan variantlardir:

1. *Asar mavzusini belgilashda assotsiativ kontekstga tayanish*. Jumladan, bunga 10-sinfda O‘.Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarini o‘rganayotganda adibning “Urushning so‘nggi qurbanisi”, E.Vohidovning “Nido”, R.Fayziyning “Hazrati inson” asarlaridagi urush mavzusini misol tariqasida ko‘rsatish mumkin.

2. *Asar g‘oyasini aniqlashda assotsiativ kontekstga tayanish*. Xususan, 5-sinfda Oybekning “Bolalik” qissasidan olingan “Bolaning ko‘ngli poshsho” hikoyasini tahlil qilishda asardagi asosiy fikr “bolaning ko‘ngliga qarash” va unga mos holda “qalb”, “istak”, “beg‘uborlik” tushunchalarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. “Qalb”, “soflik” so‘zlari assotsiativ kontekstda T.To‘laning “Do‘nan”, A.Sent Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asarlariga mos keladi.

3. *Asar kompozitsiyasini ko‘rib chiqishda assotsiativ kontekstga tayanish*. Masalan, 10-sinfda A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini o‘rganish jarayonida kompozitsiyaga “hikoya ichidagi hikoya”ni ifodalovchi asarlar, “adabiy ramka”larga diqqat qaratish zarur. Masalan, bu o‘rinda quyi sinflarda o‘rganilgan asarlar, masalan,

“Uch og‘a-ini botirlar” ertagidagi “To‘ti voqeasi”, Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonidagi qoliplovchi hikoyatlar kompozitsiyasini eslash o‘rinlidir. Mazkur jarayonda asar kompozitsiyasi, hikoyachi obrazining ahamiyati, ularni birlashtiruvchi jihatlar va o‘ziga xosliklar haqidagi savollarga javob izlanadi. Yaqin tushunchalarni ushbu asarlar doirasida ko‘rib chiqish imkoniyati kengayadi.

4. *Asar sujetini ko‘rib chiqishda assotsiativ kontekstga tayanish.* Jumladan, 9-sinfda qadimgi madaniy obidalarga doir materiallarni o‘rganishda “Devonu lug‘otit-turk”, “Qutadg‘u bilig” yoki “Hibat ul-haqoyiq” asarlari sujetidagi ba’zi o‘xhashliklarga e’tibor qaratiladi.

5. *Asar epizodi tahlilida assotsiativ kontekstga tayanish.* Ch.Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romanı qahramoni Onaning fidoyiligi tasviri orqali assotsiativ-kontekstli taqqoslashdan foydalanish mumkin. Xususan, O’.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidagi “Gilam paypoq” parchasi, “Urushning so‘nggi qurbanı” hikoyasi, S.Ahmadning “Ufq” trilogiyasidagi Ona obrazlariga xos fidoyilik, jonkuyarlik sifatlari aks etgan lavhalar fikrimizning yorqin dalilidir. Yoki A.Qahhorning “Dahshat” hikoyasi qahramonlari kelishuvi (Unsinning qabristonga borib choy qaynatishiga sabab bo‘lgan lavha) bilan A.Chexovning “Garov” hikosidagi bankir va huquqshunos yigit o‘rtasidagi voqealar shular jumlasidandir.

6. *Adabiy obraz tavsifini tuzishda assotsiativ kontekstga tayanish.* Masalan, 9-sinfda Oybekning “Navoiy” romanidagi ulug‘ zot obrazi xususiyatlarini Izzat Sulton va Uyg‘unning “Alisher Navoiy”, Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” yoki Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarlari sujetiga qiyoslab tahlil qilish mumkin. Bunday taqqoslash o‘quvchilarga Navoiy obrazining boshqa adiblar va o‘zbek adabiyoti kontekstidagi o‘rnini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shoir shaxsiyati haqidagi tasavvurlarini yanada kengaytiradi.

7. *Asardagi badiiy detalning ma’nosini aniqlashda assotsiativ kontekstga tayanish.* Detal badiiy asar kompozitsiyasida o‘z o‘rnini topgandagina vazifasini to‘g‘ri o‘tay oladi. U yozuvchini ko‘p so‘zlikdan, “adabiy laqma”likdan saqlaydi. Qisqalik va mazmundorlikka erishish – badiiy detalning xarakterli xususiyati. Masalan, A.Qahhorning “Dahshat” va I.Sultonning “Shamolli kecha” hikoyalaridagi shamol, Luqmon Bo‘rixonning “Quyosh hali botmagan” asari bilan P.Koelonning “Alkimyogar”dagi sahro, N.Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” va U.Folknerning “Ayiq” asarlaridagi o‘rmon badiiy detallari shular jumlasidandir.

O‘qish faoliyati ancha keng tushunchadir. Agar o‘qituvchi o‘quvchilarni asarning yaratilish tarixi, muallifning ijodiy va shaxsiy hayoti, adabiy tanqidda ochiladigan ma’no tahlili haqidagi faoliyat turlariga qiziqtirsa, u shaxsiyatga yo‘naltirilgan bo‘ladi. O‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mezonlari o‘qishga shaxsiy munosabatining namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Jumladan, badiiy asar matnini idrok etish darajalari (bosqichlari) orqali; o‘quvchining o‘qish faolligi ko‘rsatkichlari orqali; o‘zlashtirilgan elementar o‘qish ko‘nikmalari orqali; o‘quvchi shaxsiyatini o‘zgartirish ko‘rsatkichlari orqali. Muammoni hal qilishda o‘z-o‘zini tahlil qilish uchun motivatsiya berish kognitiv qiziqishning uyg‘unlashishiga hissa qo‘sishi mumkin. O‘quv muammolarini hal qilishga qaratilgan natijalarni taqdim etishda dialog yoki yozma nutq, vizual ma’lumotlar bilan ifodalangan xabarlar (diagramma, jadval, rasmlar ko‘rinishida)

hamda multimedia imkoniyatlari asosida tayyorlangan prezentatsiyalar o‘z samarasini beradi.

O‘quv vazifalari sxematik holda turli ko‘rinishlarni oladi. Masalan, muayyan shoir ijodida tabiat tasvirini o‘rganishda topshiriq-taqdimot metodidan foydalanishni olaylik. O‘qituvchining asosiy vazifasi tabiat haqidagi she’rlar ustida ishlashni she’riyatga qiziqish uyg‘otadigan mazmunda uyushtirishdir. Buning uchun o‘qituvchi, avvalo, o‘quvchilar she’r mazmuniga xos obrazlilikni anglashlariga doir usullarni ta’minlashi zarur. Jumladan, sharhli o‘qish, lug‘atlardan foydalanish, tasviriy-ifodaviy vositalar yoki adabiy-nazariy tushunchalar tahlili badiiy obraz va obrazlilikning mohiyatini idrok etishga, tasvir mavzusini aniqlash va ko‘ra olishga yordam beradi. O‘qituvchi savollari bo‘yicha suhbat, og‘zaki rasm chizish, yod olish, rasmlar bilan taqqoslash orqali o‘quvchi oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yish mumkin:

she’riyat antologiyalaridan fasllar tavsifi yoki tabiat hodisalari tasviriga bag‘ishlangan she’rlarini o‘qish (masalan, Mirtemirning “Bulut”, “Baliq ovi”, “To‘rg‘ay”, “Shudring” kabi asarlari); ruhiyati, didi va ma’naviy ehtiyojiga mos keladigan she’rlarni tanlash (Faxriyorning “Bahor kelar dalalarga to‘rkunlab” she’ri va hk.); asardagi manzara bilan o‘z tasavvurlarini solishtirish; she’rni ifodali o‘qishga tayyorlanish; ushbu she’rni tanlashi sababini tushuntirib, og‘zaki javob tayyorlash; o‘z nuqtayi nazari asosida taqdimot qilish. Alovida baholash uchun o‘quvchilardan she’r mavzusi, chizgilar yoki motivlariga mos keladigan musiqiy, badiiy, tasviriy namunalarni tanlashlari so‘raladi. Jarayonda tanlangan asarlarning umumiyluhi, ohangi yoki mazmunidagi mushtaraklik kabi jihatlarga e’tibor qilinadi. Buning uchun o‘rganilayotgan asarlarga mos musiqiy yoki tasviriy san’at namunalaridan maxsus galereya tayyorlab qo‘yilishi kerak. Adabiyot darslari uchun *audiogalereya* – bu muayyan sinf o‘quv dasturlariga mos holda shakllantirilgan ketma-ketlikda uzatiluvchi kuy-qo‘sishlar jamlanmasi. Masalan, o‘qituvchi dasturda o‘rganilishi rejalashtirilgan ijodkorlar yoki mavzuga tegishli bo‘lgan boshqa she’rlar asosida yaratilgan qo‘sishlardan maxsus galereya shakllantirishi mumkin:

1. Mumtoz asarlarga oid (Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab kabi shoirlar g‘azallari asosida); 2. Zamonaviy she’riy namunalarga doir (H.Olimjon, M.Yusuf, U.Asim, T.Sulaymon kabi shoirlar ijodi asosida); 3. Milliy kuylarga oid (“Shahmaqom”: “Buzruk”, “Rost”, “Navo”, “Dugoh”, “Segoh” kabi); 4. Opera va ariyalarga doir (M.Ashrafiyning “Dilorom”, S.Yudakovning “Maysaraning ishi”, S.Boboyevning “Yoriltosh” operalari; “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin” ariyalari va b.). Shu tariqa o‘quvchilar mavzu va kayfiyatga yaqin she’r tanlashi, izohlashi va uni ifodali o‘qishga tayyorlanishi mumkin. Opera va ariyalarga murojaat qilish o‘quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish hamda jahon musiqa xazinasidagi nodir namunalar bilan tanishtirish imkonini beradi. Audiogalereya asardagi muayyan epizod ruhiga mos holda sho‘shqin, ko‘tarinki, tantanavor, xazin, ma’yus ohangdagi simfoniyalardan ham tuzilishi mumkin.

Hozirgi axborotlashuv davrida 3D o‘lchamli (panoramali, qalqib chiquvchi, taxtali) kitoblar o‘quvchilarni mutolaaga qiziqtirishda qo‘sishimcha didaktik vositalardan biridir. Bunday shakldagi kitoblar mutolaasiga qiziqtirish uchun maxsus dasturlar talab etiladi. Dastur telefonga yuklangach, undagi scratch-kod faollashtiriladi. Shundan so‘ng kitob sahifalaridagi rasmlar konturi asosida bo‘yaladi.

Keyingi jarayonda tasvir ustiga smartfon yoki planshet olib boriladi. Natijada monitorda bo'yagan rasm harakatlanadi va undagi qahramonlar so'zlay boshlaydi. Ko'rinadiki, 3 D o'lchamli kitoblar asar sujeti jonlantirilishi bilan ham jozibadordir. O'qituvchining o'quv dasturlariga asoslanib, bunday kitoblardan maxsus kutubxona yaratishi zamon bilan hamnafasligi hamda kasbiy kompetentliliqi belgisidir.

Tadqiqotning "**Umumta'lim maktablarida adabiyotni san'at turi sifatida o'qitish metodikasi**" deb nomlangan navbatdagi bobida adabiyotni san'at turi sifatida o'qitish tamoyillariga integrativ yondashuv asosida o'quvchilarning adabiyestetik kompetensiyalarini shakllantirish; adabiyot ta'limida vizual ta'limning gnoseologik-empirik xususiyatlari; adabiyotni san'atning boshqa turlari bilan qiyoslab o'rghanish imkoniyatlari tadqiq etilgan.

Adabiyotning estetik funksiyasi haqida gap ketganda, avvalo, uning so'z san'ati ekanligi, obrazliligi, badiiy jonlantirilgan hayot o'quvchi tuyg'ulariga ta'sir etishini ta'kidlash joiz. Aksiologik (baholash) va tarbiyaviy vazifalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Kundalik turmushni tasvirlash, hayotiy vaziyatlarni qayta yaratish orqali yozuvchi qahramonlar xatti-harakatlari, kechinmalarini bir vaqtning o'zida baholaydi, chunki muallif tuyg'ulari va dunyoqarashi matndagi har bir so'zga singib ketadi. Adabiyot san'at turi sifatida badiiy voqelikni yaratish yo'lidan boradi. Uning gedonistik – go'zallikdan estetik zavqlanish, uyg'unlik topishdan ma'naviy ozuqa olishga oid funksiyasi adabiy ta'lim uchun muhim ahamiyatga ega. Axborot texnologiyalari imkoniyatlari adabiyotning xususiyatlarini idrok etishda samarali vositadir.

Adabiy ta'limda foydalanish uchun bugun dolzarb sanalayotgan virtual borliq imkoniyatlari axborot texnologiyalari sohasidagi eng so'nggi yutuqlarni o'z ichiga qamrab olishi, unda rivojlangan davlatlarning virtual laboratoriya mashg'ulotlariga doir tajribalaridan unumli foydalanish, eng muhimi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini nazarda tutgan holda yaratilishi maqsadga muvofiq. Maxsus pedagogik dasturiy vositalar yordamida tayyorlangan virtual muhitga kirish orqali voqealar rivojini kuzatish, qahramonlar bilan birga harakatlanish yoki jarayonga ta'sir ko'satish mumkin bo'ladi. Jumladan, 6-sinfda H.Shayxovning ilmiy-fantastikaga mansub "Birinchi sinov" asari yuzasidan virtual tajribalar boshqa fanlar, xususan, sujeti koinotda sodir bo'lishi nuqtayi nazaridan fizika va astronomiya fanlari bilan aloqadorlikda tashkil etishni, shuningdek, o'quvchilarini virtual planetariylarga sayohatlar uyushtirishni ham taqozo etadi. Bunda quyidagilar nazarda tutiladi:

- 1) asarni virtual muhitda gavdalantirish uchun sujetni ixchamlashtirib ssenariiy tuzish, vaqtini va hajmini e'tiborga olish;
- 2) hikoyachi va qahramonlar nutqini ifodalashning optimal yo'llarini belgilash, ovozning o'quvchi sezgilariga ta'sirini ko'zda tutish;
- 3) voqealoyi, detallar va zamoni ifodalash texnikasini aniqlashtirish;
- 4) virtual muhitning o'quvchilar psixologiyasiga ta'sirini bashoratlash va unga doir chora-tadbirlarni rejalahtirish;
- 5) virtual mahsulotning adabiy ta'lim maqsadiga qay darajada muvofiq kelishini bashoratlash;
- 6) o'quvchilar tomonidan bajariladigan harakatlarni loyihalashtirish;
- 7) o'quvchilararning asar sujetiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini belgilash va buning uchun maxsus kadrlarni kiritish;

8) o‘quvchilarni virtual texnologiyalar bilan ishlashga jalg etish, g‘oyalarini taklif etishga yo‘naltirish va hk.

*Virtual xaritalar* – bu sujet rivojida adabiy qahramonlar yoxud yozuvchi (shoir) ijodidagi muhim tafsilotlar, hayotidagi burilish nuqtalarini muayyan yo‘nalishda pedagogik dasturiy vositalar orqali ifodalangan ko‘rinishi. Sujetga asoslanib xarita yaratishga, masalan, “Oqbo‘yin” qissasidagi Qoplon yoki ularni chalg‘itish uchun bo‘rilar itlarni chalg‘itib yashiringan tepaliklar, “Sariq devni minib” yoki “Shum bola” asarlaridagi qahramonlar sarguzashtlari kechgan joylar yo‘nalishlarini tanlash mumkin. Virtual xarita talabiga javob berishi uchun so‘z yuritilgan hudud geografiyasiga asoslaniladi. Bunda Google EarthWin yordamchi dasturi imkoniyatlaridan unumli foydalanish mumkin. Dasturning ahamiyatli jihat shundaki, u kompyuterga o‘rnatilgandan so‘ng yer yuzidagi istalgan joyni ko‘rish imkoniyatini berishidir. O‘quvchilar asarda tasvirlangan hududlarni xarita orqali ko‘rishlari, voqealar bo‘lib o‘tgan mamlakat yoki shaharlarning joylashuv o‘rni bilan tanishishlariga zarur sharoit yaratiladi.

Virtual borliqda gavdalantirilishi rejalashtirilgan sujet elementlari kreativ fikrlashni rivojlantiradigan metodlardan foydalanish zaruratiniz yuzaga keltiradi. *Lateral metodlar* o‘quvchilarda shaxsiy nuqtayi nazarning o‘zgarishiga, nostandard fikrlashga, yangi g‘oyalarning tug‘ilishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ular muammolar yechimiga muqobillarini topish, noodditiy g‘oyalarni taqdim etish, bir xil fikrlash hududidan chetga chiqish, ma’lumotlarni qayta ishlashning optimal yo‘llarini izlashga doir to‘ldiruvchi xususiyatga egaligi bilan an‘anaviy metodlardan farqlanadi. Lateral metodlarning muhim xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: tanqidiy fikrlashga yo‘naltiradi; muammoni kichik birliklarga bo‘lish va ularni qaytadan bir butun holga keltirishga o‘rgatadi; diqqatni o‘rganilayotgan obyektning ahamiyati pastroq jihatlariga qaratishni taqozo etadi; yetakchi fikrlar va ustuvor qarashlar yo‘nalishini aniqlashga xizmat qiladi.

*Mental buzilishlar* bu mantiqsiz va o‘rinsizdek tasavvur uyg‘otadigan vaziyatlarning sog‘lom fikrlash doirasini buzishidir. Bu esa jarayondagi o‘zgarishlar, yangi g‘oyalarning tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Shu asosda qahramonga “mantiqiy mikrafon” tutiladi. Turli ta’sirlar sababli qoqilgan, hayotlari fojiali yakun topgan qahramonlar Abdullatif (O.Yoqubov. “Ulug‘bek xazinasi”), Homid (A.Qodiriy. “O‘tkan kunlar”), Umar Zakunchi (O’.Hoshimov. “Ikki eshik orasi”), Hojar (N.Eshonqul. “Urush odamlari”) kabi qahramonlarga “mantiqiy mikrofon”ni tutish orqali muammoning tub ildizlari aniqlanishiga zamin yaratiladi.

Murakkab vaziyatlarga tushgan *adabiy qahramonlar nomidan so‘zlash*, ularning nomidan *kitobxonlarga maktub bitish* yoki asardagi *qaysidir epizodni tushirib qoldirish* (uni o‘quvchilar o‘z tasavvurlaridagi kabi qayta yaratish) mumkin bo‘ladi. Shu o‘rinda virtual texnologiyalar imkoniyatlari – qahramonning virtual qiyofasini yaratish orqali ularning o‘ziga xos olami, aytolmagan so‘zlarini ifodalashga variantlari taklif etiladi. Amalda qahramonar nomidan kuylangan qo‘sishqlarning tinglovchilarga ta’siri kattaligi yaxshi ma’lum. Xususan, “O‘tkan kunlar” romani qahramonlariga atalgan M.Yusufning “Otabek qo‘sish‘i”, “Zaynab qo‘sish‘i” she’rlari assosida yaratilgan qo‘sishqlar shular jumlasidandir. Qahramonlarning monologini shu yo‘sinda yetkazish ta’sirchanlikka xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Vogelik yoki qahramonlar kechinmalarini *hissiy-obrazli anglash metodida*, asosan, so‘z, belgi, figura, real obyektga qarab aks etgan obraz tasviri va uning ramzi o‘rtasidagi aloqadorlikni aniqlash masalasi ko‘zda tutiladi. Mazkur metod belgi, rang yoki shakllarda mujassamlangan ma’noni izohlash; ramzlar xususiyatlarini belgilash; obyektning aynan nega shunday obrazlar bilan qiyoslanishi sabablarini ochib berish maqsadiga qaratiladi. Mazkur metoddan “Xamsa” dostonida tasvirlangan yashindan ham tez harakatlanadigan “Sari us-sayr” ulovi, Iskandar olimlari kashf qilgan sirli qurollar, Xitoy hoqoni Iskandarga tuhfa etgan “Oinai Chin” ko‘zgusi yoki Mallu qo‘sishnari yaratgan sirli qurollar tasvirlarini o‘rganib, mavjud namunalarga qaysidir jihatni bilan o‘xshab ketadigan obraz, matn yoki vaziyatning ifodasi, shakl-shamoyili va mazmun-mohiyati idrok qilinishiga sharoit yaratiladi.



*Virtual muzeylarga sayohat.* Bu an’anaviy muzeylarning elektron axborot vositalariga xos interaktivlik xususiyatlari yordamida yaratilgan shakli bo‘lib, foydalanuvchilar muzey zallari bo‘ylab istaganicha harakatlanishi, eksponatlar va ularning uch o‘lchamdagisi tasvirlari bilan tanishishi, zarur ma’lumotlar olishi, shuningdek, saytga qayta kirish imkoniyati ta’milanishi bilan qulay va jozibadordir. Tadqiqotimiz davomida “Adabiyot – san’at – madaniyat” nomli to‘garak mashg‘ulotlari virtual muzeylarga integratsiyalandi. Virtual muzeysta sayohatni amalga oshirishda o‘qituvchi avval har bir xonaga kirish yo‘nalishini belgilashi, qaysi jihozga alohida e’tibor qaratishi, eksponatlarning ijodkor hayotidagi o‘rni kabi masalalar bo‘yicha yo‘riqnomaga ega bo‘lishi muhim. Chunki virtual muzeysta kirish yo‘llarini tanlash ixtiyoriydir.

Innovatsion xarakterdaligi *multimedia-galereyalar* – tovush uyg‘unligida harakatlanuvchi suratlar jamlanmasi. Ular yozuvchi hayoti va ijodi, asar sujetidagi tasvirlarni o‘quv dasturiga mos holda taqdim etishga mo‘ljallanadi. Tanlagan har bir lavha tasviri, muhim sanalgan detallarni muayyan ketma-ketlik, asar ruhiga mos kuylar uyg‘unligida taqdim etish tasavvur va hissiyotlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan yuqori sinflarda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi, xususan, “Boburnoma” asari o‘tmish ajdodlarimiz turmush tarzi, intilishlari, e’tiqodi va a’mollarini o‘quvchi tasavvurida jonlantirish uchun multimedia-galereyalarni tayyorlash mumkin. Masalan, loyiha texnologiyasiga asoslanilgan tadqiqot darsida multimedia-galereyalarni Hind o‘lkasi o‘simgiliklar yoki hayvonot dunyosiga bag‘ishlab tayyorlash, musiqiy foniga mumtoz kuy-qo‘sishlarni tanlash mumkin. Tovushlar tasvirlarning harakatlanishiga asos bo‘ladi.

Badiiy adabiyot obrazlarda fikr yuritish, idrok etish shakli ekani haqida gapirilganda uning muhim xususiyati keng ommaga tushunarligi nazarda tutiladi. Fandan farqli holda, badiiy asar haqiqatini idrok etish uchun alohida hozirlik va bilim shart emas. Binobarin, u go‘yo hayot haqiqati kabi anglanadi. Bobda bu kabi jihatlar badiiy asarlarning turli talqinlaridan foydalanish misolida o‘rganildi. So‘nggi paytlarda turli fan o‘qituvchilari hamkorligida blok darslar tashkil etish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Blok dars muayyan fanlar o‘quv dasturi mazmunining muvofiqligini uyg‘unlashtirish natijasidagi integratsiyalashgan ta’lim shaklidir. O‘quvchilarning badiiy asar va rang-tasvir namunalarini sujetidagi uyg‘unlikni idrok etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga doir blok darslarda Rauf Parfining “Tong otmoqda” (11-sinf) va

Akmal Nurning “Munavvar tong” asarlari (1-rasm) mavzu doirasi, g‘oyaviy-estetik va tarbiyaviy xususiyatlariga ko‘ra o‘rganish ijobiy natija berishini ko‘rsatdi. Kartina ma’nosini “o‘qish”ni o‘rgatish uchun o‘quvchilar e’tibori quyidagilarga qaratilishi lozim (S.Bo‘latov talqinidan ijodiy foydalanildi):



**1-rasm. “Munavvar tong” kartinasi sujetining mantiqiy yechimi**

- 1) asar janrini aniqlash, undagi elementlarni ajratib olish;
- 2) har bir element nomini yozish va raqamlash;
- 3) badiiy adabiyotda va tasviriy san’atda mazkur elementlar qanday ma’nolarni anglatishini o‘rganish, ularning o‘xshashligi va farqli jihatini belgilash;
- 4) raqamlar ketma-ketligi asosida kartinaning tuzilishini o‘rganish;
- 5) elementlarning sxematik ko‘rinishini tuzish;
- 6) har ikkala asardagi umumiy g‘oyani topish va hk. She’r tahlili va kartinani “o‘qish” davomida mualliflarning maqsadi anglashiladi (1-jadval):

#### **1-jadval**

#### **Integratsiyalashgan darslarda shoir va rasom nuqtayi nazarining mushtarak ifodasi**

Mushtarak jihatlar ifodasi	Qiyosiy tahlil	
Janri	She’r	Manzara
Sarlavhasi	Tong otmoqda	Munavvar tong
Muallif nuqtayi nazari	Orzu-umidlar, his-tuyg‘ular so‘zlarda tashbehlar orqali bo‘y ko‘rsatgan.	Ko‘tarinkilik, yorug‘lik va go‘zallik ranglar va shakllarga ko‘chirilgan.
Detallar	Yer shari (olam, harakat), bepoyon kengliklar (yashil chambarak): giyohlar va gul-chechaklar. Bunda tug‘ilish, yashamoq, orzu, maqsad va unga intilish ma’nosi mujassam.	Ufq, daraxtlar, daryo, qushlar: umr zarvaraqlarini osudalik, mehr-oqibat, birdamlik va muhabbat tuyg‘ulari bezaydi.
Kolorit (sovuj ranglarda)	Yashil – hayot demak (aynan ifoda etilmasa ham, “yaralanish” jumlesi zamirida turfa gul-chechaklar tusi mujassamligini payqash mumkin).	Havorang – toza ruh, ertalabki salqinlik.
Mazmun	Musaffo tong insonlar qalbiga ezgulik urug‘larini sochadi, yangi marralar sari ilhomlantiradi.	Muhabbat, sadoqat, nafosat va pokizalik munavvarlik nomi ostida yaxlit ma’no kasb etgan.
Tutash g‘oyalar	Hayotning, insonlarning qadriga yetish zarur. Go‘zallikni his etish va asrash, tabiatga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish, bir-birini e’zozlash insoniylikning muhim shartidir. Yashashdan asl maqsad ham shunda.	

Badiiy asarlarni teatr san'ati bilan qiyoslab o'rganishda qahramonlarning o'zlarini tutishlari va munosabatlari dinamikasini kuzatib borish, bu jihat ularning nutqida qay tarzda aks etganini tekshirish, muallif nuqtayi nazarini aniqlash zarur bo'ladi. Har bir parda bo'yicha savol-topshiriqlar ustida ishslash, obrazlarning xarakter xususiyatlari tahlilga tortish orqali "yozuvchi – teatr – tomoshabin" munosabatlari anglanishiga zamin yaratiladi. Masalan, 9-sinfda U.Shekspirning "Hamlet" fojiasini o'rganishda asarning turli talqinlari bilan ishslash yo'llarini quyidagi mazmunda tashkil etish maqsadga muvofiq:

*Qo'g'irchoq spektakli.* M.Shayxzoda tomonidan tarjima qilingan, Sh.Yusupov tahriridagi "Hamlet" qo'g'irchoq spektakli Toshkentdagi O'zbek milliy qo'g'irchoq teatrida sahnalashtirilgan.

Topshiriq. O'qituvchingiz yordamida spektaklning internetdagi havolasini topib tomosha qiling va quyidagilarni bajaring:

1. Spektaklning badiiy yechimida qaysi janr yetakchilik qilishini aniqlang. Mazkur janrning qo'llanishi sabablariga munosabat bildiring.

2. Sahna bezaklari, chiroqlar, musiqiy ohanglar va liboslarga e'tiboringizni qarating. Asada tasvirlangan davr, ijtimoiy muhit, qahramonlarning ichki kechinmalari yoki xatti-harakatlarini ifodalashda mazkur vositalarning o'rnni belgilang. Badiiy asar va qo'g'irchoq spektakliga xos jihatlarni misollar orqali bayon eting.

3. Qo'g'irchoqlar timsoli, ularni boshqarish texnikasi bilan yaqindan tanishing. Aktyorlar ijro mahorati va nutqiga baho bering. O'zingiz xohlagan qahramon nutqini ifodalashda dublyaj san'ati elementlarini qo'llab ko'ring.

4. Planshet qo'g'irchoqlar, niqobli va jonli plandagi aktyorlar ijrosini kuzating. Qaysi birining inson ruhiyatiga ta'siri kuchliligini asoslang.

5. Spektaklda foydalanilgan qizil narvonlar nimaning ramzi ekanini aniqlang. Ushbu detal asar matnida uchraydimi? Bu o'rinda dramaturg va rejissor pozitsiyasini aniqlang. Uning nima uchun qo'llanganini asoslang.

6. Nur, soya, osmon tasviri, ohanglar, jonli plandagi marhum obraziga e'tiboringizni qarating. Har birining vazifasiga to'xtaling.

7. Rasmida qaysi qahramonlar obrazini ko'ryapsiz? Mazkur ko'rinish asarning qaysi pardasiga tegishli? Fojia matnidagi va spektakldagi tavsirlarni qiyoslang.

*Multfilm.* Tadqiqotchilar "Hamlet" tragediyasining ta'sirini Amerika multijodkorlarining "Qirol sher" multfilmida ham bor deb hisoblaydilar. Multfilm voqealarining asosiy sujeti "Hamlet" bilan deyarli bir xil. Multfilm 1994-yilda rejissyorlar Rojer Allers va Rob Minkofflar tomonidan suratga olingan.

Topshiriq. "Qirol sher" multfilmini YouTube platformasidan topib tomosha qiling. Multfilmni "Hamlet" tragediyasi bilan qiyoslab o'rganing. Muhim jihatlarini qiyoslab jadvalga qayd eting.

Ijodiy ish. Asarni maktab sahnasida ijro etishga tayyorlaning. Buning uchun quyidagi topshiriqlarni bajaring:

1. O'zingizga ma'qul bo'lgan pardani sahnalashtirish ssenariysini tuzing.
2. Rollarni taqsimlang va qahramonlar nutqi ustida ishlang.
3. Aktyorlarning libosi, soch turmaklarini tanlang.
4. Voqealar kechadigan joy dekoratsiyasini yarating.
5. Afisha tayyorlang.
6. Premyera uyuhshtiring.

7. Spektakl yuzasidan muhokama tashkil eting.

8. Muallif nuqtayi nazariga ijodkor kitobxon sifatida baho bering.

Kitobxon diqqatini asardagi voqelik jalb etadi, qiziqishlari hissiyotlarini to‘lqlantiradi, fikrlash tarzi kengayadi, tasavvurlari yorqinlashadi. Go‘yoki, sujet chizig‘ida qahramonlar bilan yonma-yon harakatlanadi. Masalan, umumiy o‘rtta ta’lim maktablari 10-sinfida o‘rganilishi rejalashtirilgan “Hayotga muhabbat” hikoyasi muallifining mahorati kitobxonga asarda Yo‘lovchi bilan yonma-yon harakatlanishiga imkon yaratganida seziladi. Asar bilan tanishish o‘quvchiga qahramon bilan ijodiy hamrohlik mas’uliyatini yuklaydi. Aniqroq aytganda, kitobxon go‘yo qahramon bilan uning hayot yo‘li bo‘ylab yuradi, og‘ir kunlarining har bir burilishlarini ko‘radi, yashash uchun kurash jarayonining shakllanishini his etadi. Asarni adabiyot – tasviriy san’at – kinosan’ati tizimida taddiq qilish sujetni, qahramon portretining boshqa san’at namunalaridagi talqini, voqelikdagi muammolarni turli rakurslarda o‘rganish imkoniyatini kengaytiradi. Buning uchun o‘quvchilarga asar sujeti asosida ishlangan kartinalar, musiqa, film va ularni qiyoslab o‘rganishga doir savol va topshiriqlar beriladi.

*Tasviriy sana’t bilan:* Amerikalik rassom Ernest Blumenscein tomonidan asarga ishlangan kartinalarni diqqat bilan kuzating (2-rasm).



**2-rasm. “Hayotga muhabbat” asariga ishlangan suratlar**

1. Siz ko‘rib turgan illyustratsiya hikoyaning qaysi lavhalariga ishlanganini aniqlang. Qahramonning ruhiy holati qaysi san’at turida ta’sirchan yoritilgan deb o‘ylaysiz? Nima uchun?

2. Kartinadagi har bir detalni diqqat bilan ko‘zdan kechiring. Ularni asardagi tasviri bilan solishtiring. Asar g‘oyasini ochib berishdagi o‘rnini tushuntiring.

3. Adabiyot va tasviriy san’atning imkoniyatlarini solishtiring. Muhim jihatlarini misollar orqali ko‘rsating.

*Kinosan’ati bilan:* Asarning ingliz tilidagi kinovariantini tomosha qiling. “Love in life” (3-rasm).



**3-rasm. “Hayotga muhabbat” asariga ishlangan badiiy filmdan lavhalar**

1. Filmda qahramon ichki kechinmaları, ruhiyati, voqealar rivoji qay darajada ishonarlı tasvirlangan?

2. Filmning qaysi o‘rinlarida rejissor g‘oyalari yetakchilik qilgani seziladi?

3. Qaysi san’at turining imkoniyatlari adabiyotga yaqinligini angladingiz? Nima uchun? Javoblaringizni misollar orqali asoslang.

**“Adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitishga doir tajriba-sinov ishlari mazmuni”** nomli so‘nggi bobda o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari tahlili hamda ularning samaradorlik darjasini o‘z ifodasini topgan. Qo‘yilgan vazifalar tadqiqot mantig‘i va uning asosiy bosqichlarini belgilashga asos bo‘ldi. Tajriba-sinov ishlariiga Andijon viloyati Baliqchi tumanidagi 8-son, Namangan viloyati Chortoq tumanidagi 51-son va Toshkent viloyati Yangiyo‘l shahridagi 1-IDUMning 1337 nafar 5–11-sinf o‘quvchilari jalb qilindi. Tajriba-sinovda 684 nafar o‘quvchi tajriba guruhida, 653 nafar o‘quvchi nazorat guruhiga respondent sifatida tanlab olindi.

Birinchi bosqichda (2020–2021-yy.) ishning asosiy yo‘nalishlari aniqlandi. Muammoga doir adabiyotlar o‘rganildi, tadqiqot mavzusi nazariy jihatdan asoslandi, maqsad va vazifalari belgilandi. O‘quv eksperimenti uchun materiallar tanlandi, savollar, topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi va uni aprobatsiya qilish ishlari amalga oshirildi.

Ikkinci bosqichda (2021–2022-yy.) o‘qituvchilar bilan so‘rovlari o‘tkazildi. “Adabiyot” dasturlari, darsliklar, o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar mazmuni tahlil qilinib, o‘quv eksperimenti uchun materiallar, maxsus kurslar uchun dasturlar yaratildi. Adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitishga oid individual topshiriqlar ishlab chiqildi hamda alohida darslar o‘tkazildi.

Uchinchi bosqichda (2022–2023-yy.) takroriy so‘rovnomalar tashkil etildi, o‘quv eksperimenti davom ettirildi. “Adabiyot – san’at – madaniyat” fakultativi hamda badiiy-estetik tafakkur tarbiyasiga qaratilgan adabiy-ijodiy to‘garaklar tashkil etilib sinovdan o‘tkazildi, natijalari umumlashtirildi, ishlab chiqilgan metodika joriy etildi. Tajriba-sinov davrida adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitishga doir savol-topshiriqlar tizimi o‘quvchilarning adabiy-nazariy tushunchalar, estetik kategoriylar hamda ijodkor nuqtayi nazarini o‘rganishda barcha sinflar uchun o‘quv dasturlari mazmuniga muvofiq holda qo‘yildi. Lekin bunda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, o‘quv-biluv faoliyati, o‘zlashtirish darajalari nazarda tutilib, o‘rganilgan asarlarning ma’lum xususiyatlari e’tiborga olindi.

Adabiyotni o‘quv fani sifatida o‘zlashtirishga doir quyidagi mezonlar belgilandi:

tayanch sinf o‘quvchisi: asarning tur va janriy xususiyatlarini farqlay bilishi; asardan sujet va uning qismlari (ekspositsiya, tugun, voqealari rivoji, kulminatsiya, yechim)ni aniqlay olishi; asar tarkibidan kompozitsion vositalar (sarlavha, epigraf, portret, peyzaj, detal)ni belgilashi; tasviriy-ifodaviy vositalar (sinonim, antonim, arxaizm, neologizm, shevaga xos so‘zlar, jargon va hk.)ni aniqlay olishi; tilning maxsus tasviriy vositalari (sifatlash, o‘xshatish, majoz, istiora, jonlantirish, kinoya, ritorik so‘roq, ritorik murojaat va hk.) vazifalarini aniqlashi; asosiy va yordamchi qahramonlarga xos xususiyatlarni farqlay bilishi; o‘zi uchun ideal sanalgan qahramon xarakter xususiyatlarini tavsiflashi.


yuqori sinf o‘quvchisi: asar leytmotivi xususida tushunchaga ega bo‘lishi; adabiy asar tiliga xos xususiyatlar (muallif tili, hikoyachi tili)ni bilishi; konfliktni hal

etuvchi va muallif g‘oyasini boshqaruvchi personajni topa olishi, unga munosabat bildirishi; asardan obraz, xarakter va tip darajasiga ko‘tarila olgan qahramonlarga misollar ko‘rsatishi; asarda muallif nuqtayi nazarining namoyon bo‘lish o‘rinlariga misollar keltirishi; qahramonlarning asardagi o‘rnini aniqlashi; bosh qahramonning ular orasidagi o‘rnini belgilashi; muallif va qahramon nuqtayi nazarining o‘zaro mosligini aniqlashi va asoslashi va hk.

Adabiyotni san’at turi sifatida idrok etish mezonlari quyidagilar asosida shakllantirildi:


tayanch sinf o‘quvchisi: inson obrazi adabiyot va san’atning barcha turlari mavzusi ekanini bilishi; san’atning muayyan turiga xos badiiy obraz yaratish materiallarini farqlay olishi; adabiyotning boshqa san’at turlaridan farqlanuvchi xususiyatlarini aniqlashi; poeziyaning musiqaga nisbatan o‘ziga xosligini biror asar misolida ko‘rsatib berishi; tasviriy san’at namunalari va badiiy adabiyotdagi obrazlarning uyg‘un jihatlarini aniqlashi; ijodkorning qahramon obrazi ichki dunyosini tasvirlashda peyzajdan foydalanish sabablarini izohlashi; obrazlilikning muayyan hodisa va his-tuyg‘ularda aks etishini misollar orqali ko‘rsata bilishi va hk.

